



# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar—mart

## RAQAMLAR:


- 2018 yil yanvar-mart oylarida bozor xizmatlari hajmi 10153,5 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 135,2 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga bozor xizmatlari hajmi 4110,1 ming.so'mni tashkil etdi.

Zamonaviy dunyoda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ko'rsatilayotgan bozor xizmatlari turlarining ro'yxati juda xilma-xildir.

Respublikada amalga oshiralayotgan iqtisodiy islohotlar xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish imkonini bermoqda. Natijada, 2018 yil yanvar—mart oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 10153,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Bozor xizmatlarining salmoqli hajmi savdo xizmatlari, moliyaviy xizmatlar, transport xizmatlari, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari, ta'lim sohasidagi xizmatlarda kuzatilmoqda.

## Xizmatlar ishlab chiqarish hajmlarining taqqoslanishi, mlrd.so'm



**2018 yil yanvar—mart oylarida tumanlar bo'yicha  
xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**


	<b>Xajmi, mlrd.so'm</b>	<b>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da</b>
<b>Toshkent shahri</b>	<b>10 153,5</b>	<b>112,7</b>
tumanlar:		
Bektemir	267,4	104,2
Mirzo Ulug'bek	863,7	110,8
Mirobod	1 679,4	121,0
Olmazor	538,6	105,8
Sergeli	582,0	126,5
Uchtepa	526,1	102,1
Chilonzor	938,4	106,4
Shayxontoxur	1 154,9	105,2
Yunusobod	1 908,6	116,4
Yakkasaroy	706,6	109,1
Yashnobod	925,4	129,5
Tumandan tashqarida	62,4	52,6

Tumanlar o'rtasida eng katta hajm Yunusobod (1908,6 mlrd.so'm), Mirobod (1679,4 mlrd.so'm) va Shayxontohur (1154,9 mlrd.so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Eng kam hajm Bektemir (267,4 mlrd.so'm), Uchtepa (526,1 mlrd.so'm) va Olmazor (538,6 mlrd.so'm) tumanlarida kuzatilmoqda.

Ta'kidlash joizki, jismoniy va yuridik shaxslarning xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun xizmatlar sohasini hududlarda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishini ta'minlamasdan turib iqtisodiyotining yirik tarmog'i sifatida xizmatlar sohasini jadal rivojlantirib bo'lmaydi.


**2018 yil yanvar—mart oylarida Toshkent shahar bo'yicha jami xizmatlar hajmida tumanlarning ulushi, % da**



Hududlar bo'yicha xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni Yunusobod (18,8 %), Mirobod (16,5 %), Shayxontohur (11,4 %), Chilonzor (9,2 %) va Yashnobod (9,1 %) tumanlari egallaydi.

Deyarli barcha tumanlarda bozor xizmatlari hajmining ortishiga ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibida transport xizmatlari, moliyaviy xizmatlar va savdo xizmatlari ulushining oshishi ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

### 2018 yil yanvar—mart oylarida tumanlar bo'yicha jami xizmatlar tarkibida yuqori ulushga ega xizmat turlarini taqqoslanishi, % da




Bektemir tumanida savdo xizmatlari eng katta ulushga egaligi qayd etildi. Biroq, Yashnobod, Mirobod va Yunusobod tumanlarida bu ko'rsatkich nisbatan pastligi kuzatildi.

Mirobod tumanida boshqa hududlarga nisbatan xizmatlar tarkibida moliyaviy xizmatlar, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari va boshqa xizmatlar yuqori ulushlarni tashkil etadi.

2018 yil yanvar—mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 4110,1 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 110,8 %ni tashkil etdi.

### 2018 yil yanvar—mart oylarida tumanlar bo'yicha aholi jon boshiga o'rta ko'rsatkichlari



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Mirobod tumanida—12468,1 ming so'm qayd etilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 119,2 % ni tashkil etdi. Aholi jon boshiga xizmat ko'rsatishning eng past ko'rsatkichi Olmazor tumanida kuzatildi—1524,0 ming so'm, o'sish sur'ati esa 104,0 % ni tashkil etdi. Bu esa mazkur tumanda aholi zich joylashganligi bilan izohlanadi.

Taqqoslash uchun, Bektemir tumanida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 8055,8 ming so'mga teng. Biroq, ushbu tumanda aholi soni Olmazor tumanining aholisiga nisbatan 10,6 marta kamdir.


Taqqoslash uchun, Bektemir tumanida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 8055,8 ming so'mga teng. Biroq, ushbu tumanda aholi soni Olmazor tumanining aholisiga nisbatan 10,6 marta kamdir.

### 2018 yil yanvar—mart oylarida Toshkent shahrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarining ishlab chiqarish hajmi

	Xajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da
Xizmatlar (jami)	10 153,5	112,7
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	1 008,5	117,0
Moliyaviy xizmatlar	2 471,9	135,2
Transport xizmatlari	1 241,6	116,9
shu jumladan: avtotransport xizmati	777,5	101,1
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	386,9	104,5
Savdo xizmatlari	2 872,5	99,7
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	443,4	103,5
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	472,9	105,8
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	176,7	113,2
Ijara xizmatlari	189,1	100,3
Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	48,0	101,7
Shaxsiy xizmatlar	133,2	100,8
Me'morchilik sohasidagi xizmatlar	239,3	134,5
Boshqa xizmatlar	469,5	108,1

2018 yil yanvar—mart oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (135,2 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (134,5 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (117,0 %), transport xizmatlari (116,9 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (113,2 %) kabi xizmatlarning o'sish sur'atlari yuqori sur'atlarda oshdi.

### 2018 yil yanvar—mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, % da




Valyuta siyosatini erkinlashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lamini kengaytirish, shuningdek, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmini oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida yuqori texnologik xizmatlarning yanada rivojlanishi, xizmatlarning yangi turlarini kengaytirilishi, shuningdek, ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifatini yaxshilanishi aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi.

2018 yil yanvar—mart oylarida transport xizmatlari hajmini oshishiga ta'sir qilgan omillaridan biri yo'lovchi va yuklarni tashish xizmatlariga bo'lgan talabning oshishi hisoblanadi.

Transport xizmatlari umumiy hajmida eng katta ulushni avtomobil transporti orqali ko'rsatilgan xizmatlar (62,6 %) egallaydi. Bu uning harakatchanligi, yuklarni (yo'lovchilarni) yo'lda boshqa transportga qo'shimcha yuklamasdan (o'tkazmasdan) "eshikdan eshikgacha" etkazib berishda qulayligi, transport vositasini harakatlantirishda mustaqilligi bilan izohlanadi.

### 2018 yil yanvar—mart oylarida xizmatlar ishlab chiqarish tarkibi, % da



Xizmatlar tarkibida eng katta ulush—savdo xizmatlari (28,3 %); moliyaviy xizmatlar (24,3 %); transport xizmatlari (12,2 %); aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (9,9 %); ta'lim sohasidagi xizmatlar (4,7 %); ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (4,4 %) tashkil etadi.

Toshkent shahar

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Mas'ul: Aleshunina O.V.

(71) 230-88-15